ZAMONAVIY TA’LIMDA O‘ZBEK ADABIYOTINI O‘QITISHGA YANGICHA YONDASHUV

Qarshiyeva Mahbuba Abduvali qizi
Guliston shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi
Sirdaryo viloyati Guliston shahri
Email: qarshiyevamahbubaa@gmail.com

Annotatsiya

Bugungi zamon yoshlariga adabiy ta’lim berish, ularning tafakkurini rivojlantirish maqsadida qator adabiyotshunos olimlar tomonidan turli talqin va tahlillar berib borilmoqda. Badiiy adabiyotni qiyofasi o‘zgargan zamon va sog‘lom tafakkur nuqtayi nazaridan o‘qish, idrok etish, tushunish va tahlil etish masalasi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Shunday ekan, adabiyotshunos olimlarimiz va munaqqidlarimizning o‘z qarashlarini belgilab, tahlil va talqin tamoyillarini aniqlab olishga kirisha boshlashlari kerak, bu paydo bo‘lgan yangicha fikrlash ilmiy tadqiqotning mutlaqo yangi nazariy asoslarini shakllantirish zarurati bor.

Maqolada Qozoqboy Yo‘ldoshevning o‘ziga xos uslubi haqida mulohazalar bayon qilingan. Olim badiiy asar haqidagi fikrlari va tahlillari bayonida faqatgina matnga tayanadi va ilmiy xulosalarini matndan keltirib xolis ifodalaydi. Asarning badiiyatiga qarab o‘z xulosalarini bayon qilishi bilan birga asarda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni ham bayon etishi xususida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: adabiyotshunoslik, badiiy tahlil, badiiy adabiyot, ma’naviy energiya, adabiy ta’lim, ilmiy haqiqat, estetik joziba, pedagogika, metodika, matn.

Inson ma’naviyatini shakllantirish imkoniyatining kattaligi va odamga ta’sir qudrati miqyosiga ko‘ra badiiy adabiyot san’atning boshqa turlari orasida alohida mavqega ega. G‘oyat ko‘p o‘lchovli murakkab butunlik bo‘lmish badiiy adabiyot o‘quvchi tomonidan o‘qilib, his etilib, anglanib olingandagina ta’sirchan estetik-ma’naviy energiyaga aylanadi. His etilmagan, anglanmagan go‘zallik hayotdagi foydalanilmagan imkoniyat kabi shaxs ma’naviyatiga ta’sir ko‘rsata olmaydi. Shuning uchun ham oliy adabiy ta’limda badiiy asar tahlili alohida mavqega, ahamiyatga egadir. Adabiy ta’lim oldidagi bosh maqsadga erishish uchun filolog mutaxassis badiiy asarni tahlil qilish yo‘llarini puxta egallab olishi shartdir. Qozoqboy Yo‘ldoshev faoliyatini, chop etilgan maqolalarini kuzatgan kishi bunga to‘la amin bo‘ladi. Olimning har bir chiqishi badiiy asarni to‘laroq tushunishga qaratilganligiga guvoh bo‘ladi: “Yetuk badiiy matnlarning to‘la anglanishi va badiiy tahlil qilinishiga erishmay turib, jamiyat miqiyosida barkamol shaxs shakllantirishni o‘ylash amalga oshmaydigan orzudir. Chinakam badiiy tahlil bo‘lmagan joyda badiiy matn o‘quvchining tuyg‘ulariga ta’sir etmaydi, binobarin, shaxs ma’naviyati shakllanishiga xizmat qilmaydi”.[1, 17-b]

Olim jamiyat a’zolarining biror ilmiy haqiqatni bilmay qolishi jamiyat uchun ham, shaxsning o‘zi uchun ham jiddiy yo‘qotish bo‘lmagani holda, biror ma’naviy qadriyat, axloqiy sifatni o‘zlashtirmagani chinakam fojia ekanligini ta’kidlaydi. Adabiyotshunos o‘z fikrini yanada rivojlantirib: “Pifagor teoremasi yoki suvning formulasini bilganda ham,

bilmaganda ham kishining, uni o‘rab turgan olamning mohiyati o‘zgarishsiz qolaveradi. Lekin hazrati Navoiyning: “Lolazor ermaski, ohimdin jahonga tushdi o‘t, Yo‘q shafaqkim, bir qiroqdin osmonga tushdi o‘t” matla’li yoki: “Meni men istagan o‘z suhbatiga arjmand etmas, Meni istar kishining suhbatin ko‘nglim pisand etmas” misralari bilan boshlanadigan g‘azallarining badiiy jozibasi va mantiqiy qudratini his etgan odam uchun olam ham, odamlar ham, hayot ham boshqacharoq bo‘lib qolishi aniq. Bulardan bexabar odamning ruhiyatida muayyan kemtiklik bo‘lishi shubhasizdir. Demak, asl badiiy asar odamning o‘zida, uning tabiatida, manaviyatida ma’lum yangilanish, evrilish sodir qiladi”[13].[1, 19-b]

Olim yangi metodologik qarashlarga ehtiyoj kuchli bo‘lgani holda, hanuz uning yetakchi belgilari muayyanlashmaganligini uqtiradi. Q.Yo‘ldoshev adabiyotshunoslar diqqatini badiiy so‘zning o‘ziga qaratish, ehtirosli munosabatlarni vazmin va salmoqdor tadqiqotlar hisobiga bartaraf qilishga intiladi. Chunki badiiy adabiyotni qiyofasi o‘zgargan zamon va sog‘lom tafakkur nuqtai nazaridan o‘qish, idrok etish, tushunish va tahlil etish masalasi o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir. Shunday ekan, adabiyotshunos olimlarimiz va munaqqidlarimizning o‘z qarashlarini belgilab, tahlil va talqin tamoyillarini aniqlab olishga kirisha boshlashlari ma’qul bo‘lib, bu paydo bo‘lgan yangicha fikrlash ilmiy tadqiqotning mutlaqo yangi nazariy asoslarini shakllantirish zarurati tufayli ekanligi ayonlashadi.

Biroq mazkur anglash jarayoni birdaniga va oson bo‘ladi, deb o‘ylash noto‘g‘ri, chunki adabiyotni ijtimoiy hodisa deb bilgan va murosasiz munozaralarga ko‘nikkan ayrim tadqiqotchilar butun umr tayanib, ishonib kelgan qarashlari keraksiz ekanligiga ishonishi qiyin bo‘lishi, shu bois ayrim adabiyotshunos olimlar adabiy-estetik hodisalarga haligacha o‘jarlik bilan eski qoliplaridan foydalanib yondashaverishlari, yangicha tafakkur maromini topa olmayotganganlari ham haqiqat ekanligi olim tadqiqotlarida aks etgan.

Q.Yo‘ldoshev “Haqiqiy badiiyat, anglangan va anglatilgan go‘zallik kitobxonning nafaqat ma’naviyati, balki tafakkuriga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, uning shaxs sifatida shakllanish jarayoniga to‘g‘ri yo‘nalish beradi”,- deb hisoblaydi. Chindan ham badiiy adabiyotni faqat hayotiy savollarga javob beradigan, o‘quvchilarni yashashga o‘rgatadigan amaliy vosita tarzida tushunish noto‘g‘ridir. Chunki badiiy adabiyot savollarga javob bermaydi, balki kitobxon oldiga savollar qo‘yish yo‘li bilan unda ma’naviy-fikriy munosabat uyg‘otadi. Bu munosabat oldin adabiy qahramonlarga yo‘naltirilgan bo‘lsa, keyinchalik, birinchi navbatda, o‘quvchining o‘ziga qaratiladi. Demak, anglangan badiiyat o‘quvchini o‘ylashga, o‘ylanishga o‘rgatadi. Shuningdek, adabiyot u yoki bu tarzda yashash kerak deb o‘quvchiga yo‘l ham ko‘rsatmaydi. Chunki har bir insonning xarakteri har xil, u tushishi mumkin bo‘lgan hayotiy vaziyatlarning bir-biridan keskin farq qiladi, tavsiya berishning imkoni yo‘q.

Yangicha adabiy qarashlarning shakllanishida A.Quljonov, A.Kattabekov, U.O‘ljaboyev, R.Majidov, V.Rahmonov, Q.Yo‘ldoshev, M.Mamatqulov kabi adabiyotshunos va metodist olimlarning o‘rni alohida bo‘lib, bu ularning adabiyotshunolikka doir adabiy-estetik, tanqidiy-ilmiy qarashlarida, ijodiy yo‘nalishlarlarida, ilmiy tafakkurdagi mushtarak jihatlar ifodasida ko‘rinadi.

Q.Yo‘ldoshev badiiy asarning tahlili butun adabiy ta’limni boshqarishi, adabiy ta’lim orqali esa butun millatni boshqarishiga to‘xtaladi. Umuman, 1980-yillardan boshlab, o‘zbek millatining ijtimoiy hayoti va taraqqiyotida asar tahlilining katta ahamiyatga egaligi anglashila boshlandi. Kitobxon, ayniqsa, filologlar badiiy asarlarni tahlil etish yo‘l-yo‘rig‘ini fan darajasida o‘rganmas va har qanday janrdagi asarni tahlil qila olish malakasiga ega bo‘lmas ekan, adabiy ta’limdan kuzatilgan maqsad to‘liq amalga oshmasligi, adabiyot

[13] O‘sha kitob. – B. 19.

o‘qituvchisi nochorligicha, adabiyot darslari zerikarliligicha, asardan chiqariladigan xulosa “ijtimoiy nasihat”ligicha qolaverishi olim tomonidan ta’kidlanadi. Tahlillar g‘arib bo‘lganligi uchun adabiyot o‘qitish jarayoni oldiga qo‘yilgan bosh maqsad – barkamol shaxs shakllantirishga erishilmaydi, uning o‘rniga quruq chaqiriq va yoqimsiz nasihatbozlik bilan o‘quvchilarni haqiqiy adabiyotdan bezdirish yuzaga keladi va ularning ma’naviyatini qashshoqlashtirish davom etaveradi.

Badiiy asarni tahlil qilish malakasiga yetarlicha ega bo‘lmagan mutaxassis talabalarga nima “berish”ni bilmaganidek, ulardan nimani “talab etish”ni ham tasavvur qilolmaydi. Shu bois, adabiyot darslarida talabalar zimmasiga g‘oyat yengil va keraksiz “yuk” qo‘yiladi. Yengil-yelpi, talabalarning xayolotini ishga solmaydigan, aqlini zo‘riqtirmaydigan “javob”lar adabiyot bo‘yicha ijobiy baho olish uchun yetarli hisoblanib kelinadi.

“Badiiy asar matni bilan ishlashni o‘z faoliyatining markaziy masalasi deb hisoblamaydigan adabiy ta’lim avval boshdan muvaffaqiyatsizlikka mahkumdir. Badiiy tahlilsiz adabiy ta’lim ma’naviyatsiz shaxs, bilimsiz mutaxassis demakdir. Yangilangan milliy pedagogika o‘z oldiga ma’naviyati yuksak shaxslarni shakllantirish maqsadini qo‘ygan ekan, adabiy ta’limda badiiy tahlil hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi shubhasizdir. Malakali badiiy tahlil bo‘lmagan joyda mo‘jizaviy asarning sehri, siri, jozibasi yo‘qqa chiqadi. Chunki uning zamiridagi badiiy va hayotiy ma’no payqalmay qolaveradi. Adabiyot o‘qitishda badiiy tahlilga e’tibor g‘oyat sust bo‘lganligi uchun ham millat ahlining bir necha avlodi Navoiy, Bobur, Mashrab va Qodiriysiz yashab kelmoqda. Chunki o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiyot o‘qitish metodikasida ijodkorlarning asarlariga xos badiiy jihatlarni butun ko‘lami, barcha qirralari bilan aniqlash hamda talaba va o‘quvchilarga yetkazib berish mexanizmi ishlab chiqilgani yo‘q”.[1, 20-b]

Q.Yo‘ldoshev “Alpomish” dostoniga ham aynan o‘zbek millatiga xos bo‘lgan jihatlarni aniqlash uchungina yondashgani asar bilan tanishgan o‘quvchiga darhol ayon bo‘ladi. Olim dostonni tekshirishda milliy o‘ziga xoslikdangina kelib chiqqan, jahon folklorida mavjud dostonlar bilan syujeti o‘xshashligi kabi omillarga chalg‘imay, aynan o‘zbek millatiga xos alomatlarinigina topgan. Olimning fikricha, har bir badiiy asarda, u aniq bir milliy zaminda paydo bo‘lganligi uchun, o‘sha sharoitgagina tegishli bo‘lgan jihatlarning izi qoladi. Bunday belgilar har doim ham yarq etib ko‘zga tashlanib turavermaydi. Ba’zi asarlarda butun asar yo‘nalishini belgilab turadigan darajada kuchli bo‘lsa, ba’zi asarlarda ko‘zga tashlanmaydigan darajada sezilmas bo‘ladi. Demak, o‘sha asarni tekshirish va tahlil qilishda ham asar yaratilgan joyga, o‘sha yerlik odamlarning dunyoqarashiga xos xususiyatlar aniq hisobga olinishi lozim.

Yangicha qarashlar shakllanishida Sirdaryo adabiyotshunoslik va metodik maktablarining asoschilaridan bo‘lgan Qozoqboy Yo‘ldoshevning hissasi beqiyosdir. Qozoqboy Yo‘ldoshev serqirra ijodkor sifatida xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot, tilshunoslik, adabiyot o‘qitish metodikasi, istiqlol davri o‘zbek adabiyoti, adabiyotshunoslikning nazariy masalalari, modern va postmodern adabiyot kabi soha va yo‘nalishlar bo‘yicha chuqur ilmiy tahlillar olib borganligi buni dalolatlaydi. **Olimning a**dabiyotshunoslik badiiy asarda tasvirlangan alohida shaxs ko‘nglidagi ruhiy tovlanishlarning ildizlarini topa bilgandagina chinakam ilmiy xulosalar chiqara olishi, bu yo‘lda ba’zan u ijodkorning o‘zi ham sezmagan jihatlarni kashf etishi, asarning yashirin qatlamlarini ko‘ra bilishi mumkinligi, teran ilmiy kuzatishlarga boy adabiyotshunoslik millatning umumiy saviyasiga ta’sir ko‘rsata olishi, mulohazali o‘quvchilarni tarbiyalashi haqidagi fikrlari alohida ahamiyatga molik. Mazkur qarashlardan adabiyotshunoslikning rivoj topishi millatning ham rivojlanishiga zamin bo‘lishi mumkinligi xususida xulosa ham kelib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Q. Yo‘ldoshev, J.Yusupov Badiiy tahlil asoslari. UrDU, 2008. – 246 b.
2. Yo‘ldoshev Qozoqboy. Jilovlanmagan tafakkur mahsuli. – T.: Tafakkur.– 628 b.
3. Yo‘ldoshev Q. O‘qituvchi kitobi. – T.: Ўқитувчи. 1997. – 230 б.
4. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari –T.: Kamalak. 2016. – 464 b.
5. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. –Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 152 b.